

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ONA TILI VA OG'ZAKI NUTQNI
RIVOJLANTIRISH**

Turdiyeva Nodira Yusupovna

Toshkent pedagogika kolleji

maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va o'z ona tilisiga o'rgatishning o'ziga xos tomonlari haqida fikrlar keltiriladi. Bola nutqidagi tovush va so'zlarning to'g'ri talaffuzi bolaning har jihatdan to'g'ri rivojlanishiga yordam berishi va uning jamiyatdagi o'z o'rnini topishidagi ko'magi haqida bayon etildi. O'z ona tilini to'liq o'rganib o'sgan bolada boshqa tillarga bo'lgan hurmat va til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj to'g'ri shakllanib borishi haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-hissiy, ijodiy, bilish sohasi, leksika, grammatika, tovush madaniyati, talaffuz;

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida tilning ahamiyati juda katta. Butun dunyo xalqlarining xoh siyosiy, xoh madaniy-ma'rifiy taraqqiyotini tilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, til eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi, jamiyat esa aloqasiz rivojlanmaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim berish, uning samaradorligini oshirish, bolalarni mustaqil ta'lim olishga tayyorlash, yangi jamiyatning ongli quruvchilarini tayyorlash va ularni tarbiyalash kabi munim hayotiy masalalarni hal qilishda ona tili asosiy o'rin egallaydi.

Xalqning milliy madaniyatini va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish - bu tilning davlat maqomini izchil va to'liq ro'yobga chiqarish" - deb ta'kidlashadi olimlar.

O'zbek adabiy tili o'zbek xalqining yagona, me'yordagi tili sifatida og'zaki va yozma shaklda asrlar mobaynida rivojlanib, mukammallashib keldi. Bilamizki, o'zbek adabiy tili taraqqiyot bosqichiga ko'ra ikki adabiy tilga ajratiladi: eski o'zbek adabiy tili va hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Eski o'zbek adabiy tili o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy asos solgan va keyinchalik Muqimiy, Furqat kabi xalq shairlari tomonidan rivojlantirilgan adabiy tildir. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili eski o'zbek tilining davomi, yangi sharoitda o'zbek xalqining iqtisodiyoti va madaniyatining rivojlanishi asosida har tomonlama boyigan shaklidir.

Bilamizki, maktabgacha ta'lim o'z oldiga 5 ta asosiy vazifani bajarishni maqsad qilgan. Bolalarning jismoniy, aqliy, nutqiy, hissiy va ijodiy rivojlanishi bugungi kun tarbiyachisi va jamiyat oldidagi ulkan vazifadir. Maktabgacha ta'limning bunday ulkan vazifani amalga oshirishida ona tilining, ayniqsa ona tilida so'zlashish, bolaning og'zaki nutqining mukammallik darajasi, so'z boyligi judayam katta rol o'ynaydi. Bolalardagi og'zaki nutqni o'stirish orqali ularning so'z boyligi, aqliy qarashlari, tafakkuri rivojlantiriladi. Ular tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradilar. Yanayam muhim bir factor borki, nutqning rivojlanishi orqali bolaning ruhiy jihatdan ham rivojlanib borishi mutaxassislar orasida ma'qullanadi. Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellect yoki ruhiy jarayonlar, bola organizmining o'sib borishi va takomillashishi bilan paydo bo'lmay, balki nutqning rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi. Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga, so'zlashishga o'rgatib borilsa, u holda bola normal holatda rivojlanadi. Ya'ni avval tasavvur etish so'ng esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Shu bilan bir qatorda bolada intellect, iroda kabi ruhiy holatlar ham parallel ravishda rivojlanib takomillashib boradi. Ko'pgina tadqiqot va hayotiy amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, nutqi yaxshi rivojlanmagan bola shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topishga qiynaladi yoki aniqrog'i kamol tormaydi.

Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi lozimki, huta maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyatiga kiradi. Bu yoshda nutq bir vaqtning o'zida barcha ruhiy jarayonlarning rivojlanishi uchun muhim vosita ham hisoblanadi. Bundan tashqari bolaning maktabga tayyorgarlik va aynan maktab davri uchun, maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun ham zamin tayyorlaydi, aqliy va jismoniy mehnatga ijodiy va ijobiy yondashishga o'rgatadi. Bolalar bog'chasining barcha ta'lim-tarbiyaviy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini o'stirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni ona tili orqali singdiriladi. "Ona tili har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanib, u orqali avlodlarga o'tib va yana unga qaytadi"- deb ta'kidlagan edi K.D.Ushinskiy.

So'z boyligi bolaga barcha mashg'ulotlarda beriladigan bilimlarni

tez va puxta o'zlashtirib olish va bu bilim ,tushunchalarni nutq orqali ifodalash imkonini beradi.Bu o'z navbatida bola kamoloti uchun ham keng yo'l ochadi,bilimlarni puxta egallashga, uni sekin-asta hayotga tadbiq etishga ham o'rgatadi.Ona tili aqliy tarbiyaning manbayi va vositasi hamdir.

Olimlarning fikricha , bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmatini dastlab ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi bilan , uning milliy xarakteri bilan belgilanadi.Ona tili bolalarda vatanparvarlik , baynalminal tuyg'ularni o'stirib borishda,bolalarning madaniy saviyasini oshirib borishda qudratli vosita bo'lib xizmat qiladi.Demak ona tili bolalarni axloqiy tomondan ham tarbiyalar ekan.

Bolalar bog'chasida tarbiyalanayotgan bola o'rtoqlari bilan o'ynaydi , qo'lidan kelgancha mehnat qiladi.Bu jarayonda o'z harakatlariga baho berishga, fikrini tushunarli qilib bayon eta olishga o'rganadi.Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi.Tevarak-atrofdagi narsa va buyumlarning ,voqea va hodisalarning nomini,sifatlarini va belgilarini,xususiyatlarini ,o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi.Ona tili orqali bola o'z ajdodlarining tarixini, madaniyatini, qadriyatini ,urf-odatlarini bilib oladilar.Xalq og'zaki ijodiyoti , badiiy adabiyot , san'at bilan tanishadilar .

Shunday qilib,ona tili maktabgacha ta'lim-tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy ,

ruhiy , jihatdan rivojlantirishda ,ularning madaniy saviyasini oshirishda , tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar ,tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib plishlarida ,maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin yaratishda ,mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatishda ,aqliy va axloqiy tarbiyani amalga oshirishda ,dunyoni , borliqni bilib olishda ,xalqimiz madaniy merosini o'rganishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1."Ilk qadam "- davlat dasturi.Toshkent.-2017 yil
- 2.Ilkl va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablar
- 3."Ilm yo'li" dasturi.Toshkent.-2023 yil
- 4.Q.S.Shodiyeva."Nutq o'stirish uslubiyoti".Toshkent.-2009 yil